



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAK TERAPIYA USULIDAN FOYDALANISHDA BOLALARDA YUZAGA KELISHI MUMKIN

BO'LGAN MUAMMOLAR

Abdupattayev G'ulomjon G'ofurjon o'g'li

Qo'qon universiteti Pedagogika va

psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Inomjonova Ma'sumaxon Donyorjon qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15765706>

ARTICLE INFO

Received: 24th June 2025

Accepted: 25th June 2025

Published: 27th June 2025

KEYWORDS

Ertak terapiyasi, intellektual rivojlanish, muammo, muammoni to'g'ri qo'yish, boshlang'ich sinf o'quvchilari, pedagogik vosita, mantiqiy fikrlash, ijodiy fikrlash.

ABSTRACT

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishida ertak terapiyasi usulining ta'siri o'rganilgan. Ertak terapiyasi – bu bolalarning ruhiy, hissiy, axloqiy va intellektual rivojlanishiga yordam beradigan samarali pedagogik vositadir. Tadqiqotda ushbu metodning bolalarning mantiqiy fikrlashini, muammolarni hal qilish qobiliyatini va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi o'rniga e'tibor qaratilgan. Ertaklar yordamida bolalar hayotiy vaziyatlarni tushunishga, turli xarakterlar bilan tanishishga va o'z ichki olamlarini anglashga imkon topadilar. Ertak terapiyasi o'quvchilarga turli ijtimoiy va psixologik muammolarni tushunish va yechish imkoniyatini beradi.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishini samarali yo'lga qo'yish juda muhim ahamiyatga ega. Bolalik davrida ularning tafakkuri, his-tuyg'ulari va axloqiy qarashlari shakllanadi, va bu jarayonda ertak terapiyasi muhim pedagogik vosita sifatida ajralib turadi. Ertak terapiyasi nafaqat bolalarning tasavvurini boyitadi, balki ularning mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini va turli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Ertaklar orqali bolalar hayotiy qiyinchiliklarga moslashishni, shaxsiy his-tuyg'ularini ifoda etishni va ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishni o'rganadilar. Shu bilan birga, ertaklar yordamida o'quvchilar turli xarakterlar va vaziyatlar bilan tanishib, o'zlarining ichki olamini tushunishga imkon yaratadilar. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishida ertak terapiyasining ta'sirini o'rganish va uni amaliyotga tatbiq etishning samarali usul va texnologiyalarini ishlab chiqish va yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilishdan iborat.

➤ Boshlang'ich sinflarda ertak terapiya usulidan foydalanishda bolalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bir qator ko'rib chiqsak.

➤ **Muammo:**

Ertak terapiyasi – bolalar tarbiyasi va rivojlanishida, psixologik va tarbiyaviy muammolarni hal qilishda samarali yordam beradigan usullardan biridir. Ushbu usul bolalarning tasavvuri, hissiyati va ma'naviy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi. Ammo boshlang'ich sinf o'quvchilarining ushbu usuldan foydalanishda ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin. O'quvchilarda yuzaga keladigan asosiy muammolar:

1. Diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklari. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uzoq vaqt biror hikoya yoki ertakka diqqatini jamlashda qiynalishi mumkin. Bu ayniqsa, murakkab voqealarning zanjiri yoki tushunishi qiyin bo'lgan ertaklarda yuzaga chiqadi. Natijada, bolalar ertakning asosiy mazmunini anglamay qolishlari mumkin.

2. Tasavvurni cheklovchi omillar. Ertak terapiyasida bolalar tasavvurini rivojlantirish muhimdir. Ammo texnologiyalarning ortiqcha ta'siri yoki bolalarda kitob o'qishga qiziqishning pastligi ularning ertaklardagi tasvirlarni yetarli darajada idrok etishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

3. Hissiy javobning yetarli darajada bo'lmasligi. Ba'zi bolalar o'z his-tuyg'ularini ochiq ifoda etishda qiynaladilar. Bu ularda ertak terapiyasi orqali kutilgan natijalarga erishishga va tushinishga to'sqinlik qilishi mumkin. Misol uchun, qahramonning ijobiy yoki salbiy xarakterlariga empatiya qilish bolalarga qiyin bo'lishi mumkin.

4. Bolalarning individualliklari. Har bir bola o'ziga xos xarakter va qiziqishlarga ega. Shu sababli, ba'zi ertaklar barcha bolalar uchun birdek qiziqarli yoki foydali bo'lmasligi tabiiy holdir. Natijada, ayrim bolalar terapiya jarayoniga faol qo'shilmaydi yoki o'zlarini chetda his qiladi.

5. Oilaviy va ijtimoiy omillar ta'siri. Ba'zi bolalar oilaviy muhit yoki ijtimoiy muammolar tufayli ertaklarning mazmunini qabul qilishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Masalan, ertakdagi ijobiy, salbiy munosabatlarni o'z oilaviy hayotidagi vaziyat bilan taqqoslash ularni ruhiy noqulaylikka olib kelishi mumkin.

➤ **Muammolarni hal qilishda bir nechta yo'llarni ko'rib chiqamiz.**

1. Ertaklarni to'g'ri tanlash. Bolalarning yosh xususiyatlari va ehtiyojlariga mos keladigan, sodda va qiziqarli ertaklarni tanlashimiz kerak. Ertak mazmuni ularning tasavvurlariga yaqin bo'lishi lozim.

2. Ertakni interaktiv tarzda yetkazish. Oddiy hikoya qilish o'rniga, ertakni rollar orqali ifodalash, bolalarni ishtirokchi qilish ularning diqqatini ushlashga yordam beradigan eng samarali yo'ldir.

3. Hissiy faollikni rag'batlantirish. Ertakni muhokama qilish, qahramonlar haqidagi fikrlarni so'rash va ularning his-tuyg'ularini ochish uchun maxsus savollar berish orqali bolalar jarayonga jalb qilinishi lozim.

4. O'quvchilarning individualligini inobatga olish. Bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash uchun oldindan suhbatlar o'tkazish va terapiya usullarini moslashtirish zarur.

5. Ota-onalar bilan hamkorlik qilish. Ota-onalarga ertak terapiyasining ahamiyati haqida tushuntirish va ular bilan birgalikda hamkorlikda ishlash bolalarning terapiya jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi.

➤ **Quyida ertak terapiya jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan samarali mashqlar keltirilgan.**

1. Ertakni davom ettiramiz

Maqsad: Bolalarning tasavvurini rivojlantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

O'quvchilarga qisqa bir ertak hikoyasi aytiladi, lekin oxiri ochiq qoldiriladi. O'quvchilar o'z tasavvurlariga asoslanib ertakni qanday tugatishni taklif qilishadi. Misol: "Bir kuni kichkina qushcha o'z uyasidan uchib ketdi va yo'lda katta daraxtga duch keldi".

2. Ertakning teatrlashtirilgan talqini

Maqsad: Bolalarning hissiy faolligini oshirish va o'zlarini turli vaziyatlarda sinab ko'rish imkoniyatini yaratish.

Ertakdagi qahramonlar rollari bo'lib o'ynaladi. Bolalar o'zlari istagan biror qahramonni tanlab, uning rolini ifodalaydi. Bu usul bolalarga his-tuyg'ularini ochiq ifodalash va o'zlarini ertak qahramonlari o'rniga qo'yib ko'rishga yordam beradi.

3. Ertakdan hikmat topish

Maqsad: Bolalarning mantiqiy fikrlash va axloqiy tushunchalarini shakllantirish.

Ertakni o'qib yoki eshitib bo'lgandan keyin bolalarga: "Bu ertak nimani o'rgatadi? Qahramonlarning xatti-harakatlari haqida nima deb o'ylaysiz?", – degan savollar beriladi. Misol: "Tulki va uzum" ertagini o'qigandan so'ng nima uchun tulki uzumni olishga harakat qilmagani haqida fikr yuritish.

4.Rasm chizish yoki tasvirlash

Ertakni eshitib bo'lgach, bolalardan qahramonlar yoki voqealarni rasm chizish yoki tasvirlashni so'rash mumkin. Shuningdek, ular o'z rasmlarini ko'rsatib, tushuntirib berishlari kerak.

Maqsad: Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ertakni yaxshiroq tushunishga yordam berish.

5.Ertakga qo'shiq yoki she'r yozish

Bolalarga ertak mazmuniga mos keladigan qisqa qo'shiq yoki she'r yozishni taklif qilish. Masalan, "Oltin baliq va baliqchi"¹ haqidagi ertakka mos she'r yozish.

Maqsad: Bolalarning ijodiy fikrlash va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

6.Ertakdagi xatolarni toppish.

Maqsad: Diqqatni jamlash va voqea tafsilotlarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.

O'qituvchi ertakni o'qib berayotib, ataylab xatolar qiladi. Bolalar esa bu xatolarni topib, to'g'rilashlari kerak. Misol: "Uch do'st yashagan ekan: bo'ri, echki va it. Bir kuni bo'ri echkidan sut so'rabdi..." (Bu yerda xato bor, chunki bo'ri echkidan sut so'ramaydi).

Ertak terapiyasi uchun mashqlarni to'g'ri tanlash bolalarning psixologik va tarbiyaviy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu mashqlar bolalarning tasavvurini, ijodkorligini va axloqiy qarashlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, ular bolalarni qiziqarli tarzda o'qitish va tarbiyalash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa: Ertak terapiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda foydali usul bo'lsa-da, samarali natijaga erishish uchun mazkur usulga to'g'ri yondashish kerak. Bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda, terapiya jarayonini yaxshi rejalashtirish orqali yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish lozim. Shu bilan birga, har bir bolaning individual ehtiyojlariga e'tibor qaratish ertak terapiyaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bashorat Jamilova O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI o'quv qo'llanma. Toshkent –2019
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent, 2017.
3. Ahmedova Z. Ertak terapiya. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2019.
4. Asqarova J. O'zbek xalq ertakchiligi va ertak nashrlarining qiyosiy tadqiqi: Filol.fan.bo'yicha falsafa d-ri diss.avtoref. – Toshkent. 2020.
5. Abdupattayev, G. (2025). NABIJON BOQIYNING "ROHILA" QISSASIDA XARAKTER VA KONFLIKT MASALASI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 127–128. <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1140>
6. Xodjaev, S., & Abdupattaev, G. (2022). Murod Muhammad Do'st ijodida davr va qahramon muammosi. Amerika ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlar jurnali , 3 (12), 77-81.

Internet manbalari:

1. www.ziyouz.com
2. www.ertakchibolajon.com

¹ Bashorat Jamilova O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI o'quv qo'llanma. Toshkent –2019